

АКАДЕМИК SHOIRNING TILAGI

*Xamroyeva Komila**Toshkent davlat yuridik universiteti**Xususiy huquq fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali biz o'zbek shoiri G'afur G'ulomning ijodiy merosi, ularning o'zbek adabiyotidagi o'rni hamda asarlaridagi o'sha davrdagi davlatning ijtimoiy, madaniy va siyosiy tuzumni qanday darajada yoritganliklari haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shuningdek, yozuvchi ijodida vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik ruhiyatini oshirish uchun olib borgan ijodiy faoliyati haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Biz o'zbek xalqi qadimdan adabiyotni sevuvchi, unga oshno bo'luvchi xalqmiz. Adabiyot orqali biz o'zligimizni, insoniylikning muhim belgisi bo'lgan iymonni ham mana shu adabiyot mahsuli bo'lgan asarlardan o'qish, izlanish davomida olamiz. Bizni zaminda qalami o'tkir yozuvchi va shoirlarimiz shunday darajada ko'p bo'lganki, ularning dovrug'i dunyoga tanilgan. Mana shunday zabardast vakillarimizdan biri G'afur G'ulom. Nodir iste'dod sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, faylasuf shoir, nosir G'afur G'ulom xalqimiz va butun ezgu niyatli bashariyatning qalbiga quloq tuta olgan, ularning dardini dildan his eta bilgan olim, shoir va yozuvchi edi. G'afur G'ulom ijodiy merosining salmoqli qismini nasriy asarlari, xususan qissalari tashkil etadi. Mazkur qissalarni davr va shaxs talqini nuqtai nazaridan o'rganish yoshlar tarbiyasi, madaniy merosga munosabatini shakllantirish, XX asr vaqeligining badiiy talqinlarini yangicha qarashlar asosida o'rganish negizida estetik didini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, "... biz hali yurtimizni, uning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olim-u ulamolarini, bebaho ma'naviy merosimizni to'liq o'rganganimiz yo'q." O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan G'afur G'ulom tavalludining yuz yilligini munosib nishonlash to'g'risida maxsus qaror qabul qilinishi va bu sananing keng nishonlanishi, Respublika Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Toshkent shahrida shoir haykali ochilishiga bag'ishlangan marosimda aytgan quyidagi so'zlari ijodkorga bo'lgan cheksiz ehtirom nishonasi bo'ldi: "...G'afur G'ulom shaxsi, xotirasi va merosi haqida gapirganda, biz bu ulug' insonni, avvalo, keng, tom ma'noda xalq shoiri, deb qiyos etamiz, uning o'lmas nomi va so'nmas ijodi oldida bosh egamiz". Yozuvchimizning asarlaridagi ma'no mazmun haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, adibning asarlari nafaqat ma'naviy jihatdan balki huquqiy jihatdan ham juda dolzarb bo'lib, jamiyat a'zolarining XX asr insonlarining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda, inson manfaatlari hamma narsadan ustun turishi, oliy darajada turishi lozimligi haqida, shuningdek turli

huquqbuzarliklarning kelib chiqishi, yechim berishida adabiyotshunoslar bilan bir qatorda, yuristlar uchun ham juda ahamiyatlidir. Qolaversa, G'afur G'ulomning shoir sifatida yaratgan ijod ishlari "Yurtimiz kelajagi" deb e'tirof etilgan yosh avlodni vatanparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash, ilm olish, fuqaroviy burchlarini ado etishda tirgak vazifasini o'taydi. Inson ijod qilib turgan ayni bir paytda savol tug'iladi, ijodkor o'z ijod mahsullarini yozishda nimadan ilhom oladi, adibni nima yoki qanday vaziyat mana shunday darajaga soladiki, uni qo'llariga qalam tutib, ijod qilishga undaydi? G'afur G'ulom ijodini o'rganar ekanmiz, adibning hayoti juda og'ir, achinarli o'tganiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi insonlar mana shunday og'ir kunlarda o'zlarini yo'qotib qo'yishadi. Ammo biz tanigan ijodkor bunday qilmaydi. Ota-onasidan ayrilgan bo'lsada, ijoddan to'xtamaydilar. Mana shu og'ir kunlarning barchasini yosh G'afur G'ulom o'z ko'zlari bilan ko'rgani, yuragidan o'tkazgani tufayli ham uning qalbida insonparvarlik, yetimparvarlik hislari juda erta uyg'ondi. Shoirning o'zi aytishicha, uning dastlabki she'riy mashqlari ham aynan yetim bolalarga bag'ishlab yozilgan edi. Mana shu shoirning ilhomidir. Fikrimizning yorqin dalili sifatida G'afur G'ulom asarlarida yoritilgan huquqiy muammolarni tahlil qiladigan bo'lsak, "Yodgor" qissasi 1936-yilda yozilgan bo'lib, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan birgalikda oila masalasiga doir huquqiy qarashlar qamrab olingan asaridir. Asarda Saodat timsolida ayollarning jamiyatdagi o'rni, gender tengligi tushunchasi ahamiyatini adib zo'r mahorat bilan yoritib bera olgan. Qissa ajrim masalasi bilan boshlanib, ushbu holat qahramonlarning kelajak hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan davom ettirilgan. Mehrining firibgarlik yo'li bilan o'zga shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatidan uning ruxsatisiz ayni qaysi maqsadda foydalanishini aytmasdan harakat qilishi, ZAGS ga borib, ushbu idora xizmatchilariga yolg'on ma'lumotlar bergan holda taloq xatini yozdirib olishi, Jo'raga esa tuxmat qilib, o'z bolasini topshirib, undan qutulishi huquqiy muammolarning boshlanish asosidir. Bu muammoni hozirgi kun talqinida ko'rib chiqsak, firibgarlik, tuxmat uchun javobgarlik masalalari bizning qonunchiligimizda o'z ifodasini topgan. ZAGS ya'ni FXDYO organi masalasiga to'xtalsak, hozirgi kunda fuqarolik holati dalolatnomalarini to'g'ri va aniq yozilishini ta'minlash maqsadida "FXDYO ning yagona elektron tizimi" tashkil qilingan. Bu orqali esa yuqoridagi holat kabi vaziyatlar bo'lmasligi, murojaatning to'g'riligi firibgarlik holatlari bo'lmasligiga qonunchiligimiz kafolat beradi. Aynan ushbu tizim orqali dalolatnomalar olib borilayotganligi sababli, agar FXDYO organida ajrim masalasi kabi bir necha ishlar ishni tezkorlikda bitiraman, qulog'im tinchiydi qabilida ko'rilgan ishlar qonunchilikda aniqlangan taqdirda, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga mas'ul mansabdor shaxslar uchun javobgarlik masalasining vujudga kelishini qonunchiligimiz ko'ndalang qo'yadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, huquqiy holat bilan bir qatorda adibimiz she'rlarida vatanparvarlik madhini kuylaydi.

*Bizning o'lkamizda yo'qolur ofat,
O'limni yengishga sizlar kandidat...
Ertaning, ey adib va shoirlari,
Kishilik ruhining injenerlari...
Siz osmon ilmini suvday ichasiz,
Yulduzdan yulduzga zumda ko'chasiz...
A'lochi o'g'lonlar, a'lochi qizlar,
Vatan istagi ham xuddi ana shu.*

Shoir “Navqiron naslimiz sinov oldida” she’rida yoshlarning kelajagini ifodalab, ularni erk va baxt bergan vatanga munosib kishilar bo‘lishga chaqiradi: Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qonunchiligimizda kundan kunga kirib kelayotgan yangiliklar amaldagi kamchiliklarning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Biz ushbu kamchiliklarni bartaraf etadigan yana bir yo‘l sifatida adiblarimiz shu jumladan G’afur G’ulom asarlarini o‘qish deb hisoblaymiz. Buning birdan bir yagona sababi adibning asarlarida xalqimizning boshidan o‘tkazgan jamiki qiyinchiliklari, ular ustidan qilingan nohaqliklar ochiqdan ochiq qalamga olingan. Aynan mana shu davrdagi kamchiliklardan kelib chiqib, qonun ustuvorligini yaratadigan bo‘lsak, bu ustuvorlik, albatta, xalqimiz urf-odatlariga putur yetkazmaydigan qonun ijodkorligini yaratishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G’afur G’ulomning “Yodgor” qissasi
2. “FXDYO ning yagona elektron tizimi”